

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Vaisova Gulnoza Kuzibayevna**

*Urganch Davlat Universiteti pedagogika fakulteti  
maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda ta'lim oldida nafaqat ijodiy, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, balki doimiy ravishda o'zgarib turadigan voqelikka moslashuvchan yo'naltirish, mutlaqo yangi yo'nalish va faoliyat turlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish vazifasi turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligi yangi tajribaga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi, bu tug'ilishdan boshlab har bir odamga xosdir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kognitiv, bola, o'qituvchi, bilim, maktab, maktabgacha ta'lim, qaror, faoliyat, jamiyat, ta'lim-tarbiya, qobiliyat, rivojlanish, bilish.*

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimining boshlang'ich poydevori bo'lgan maktabgacha ta'limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbqiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tegishli qaror va farmonlar qabul qilinib amaliyotga tatbiq qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da "...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish" masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgani ham shular jumlasidan.

Shuningdek "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablar" va "Ilk qadam" Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar



bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 1-ilovasiga muvofiq "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq:

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorgarligini ta'minlash;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish kabi masalalar belgilab qo'yilgan.


Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishi uning aqliy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismidir. Inson intellekti, hissiy tajribasining asosi bola hayotining birinchi yillarida qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalikda idrok, e'tibor, xotira, tasavvurni rivojlantirish, shuningdek, mavhumlashtirish, umumlashtirish va oddiy xulosalar chiqarishni shakllantirish, amaliy fikrlashdan mantiqiy fikrlashga o'tish sodir bo'ladi. Bolaning ta'limi va rivojlanishi cheksiz bo'lishi kerak, bu yoshga xos bo'lgan faoliyat turi - o'yin orqali amalga oshirilishi lozim.

Bolalarning aqliy qobiliyatlarini ochib berishga imkon beradigan turli xil o'yinlar orasida intellektual va o'quv o'yinlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu o'yinlarning asosiy maqsadi intellektning operatsion tomonini rivojlantirishdir. Ushbu o'yinlarning o'ziga xos xususiyati - ularda qandaydir kognitiv tarkibning mavjudligi va o'yin muammosini hal qilishning yashirin usullarini izlash, ularni topish zukkolik, nostandart ijodiy fikrlash va aqliy rejalashtirishni talab qiladi.

O'qitish jarayonida o'yin uslublarini qo'llashga o'qituvchilarning qiziqishi ortishi quyidagi hodisalar bilan bog'liq. Birinchidan, o'yin texnikasini amaliyotga joriy etish ijtimoiy tashkil etishning yangi shakllarini, o'qituvchi va bola o'rtasidagi munosabatlar qaror topishiga qaratilgan bir qator umumiy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Didaktik jarayonda bolalarning muloqot madaniyatini oshirish zarurati maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligini oshirish va o'rganilayotgan mavzularga qiziqishini rag'batlantirish zarurati bilan izohlanadi.

Hozirgi bosqichda ijtimoiy rivojlanishning muhim bo'g'ini sifatida umuman ta'lim tizimi va maktabgacha ta'lim jamiyatning yosh a'zolarini o'qitish bosqichi bo'lib, ularda qo'shimcha ta'lim olish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar





shakllantiriladi. O'quv materiallari hajmining o'sish sur'ati katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'qitish uslublarini qo'llash shartlarini taqozo etadi, bu usullar ko'pincha uning sifatiga emas, balki hazm bo'ladigan material miqdoriga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ko'p qirrali jarayon, u bola shaxsiyatining barcha tomonlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, umumiy aqliy rivojlanish, maktabga va kelajakdagi butun hayotga tayyorgarlikning muhim qismidir. U hayot sharoitlari va atrof-muhitning bolaga ta'siri natijasida amalga oshiriladi.

Intellektual rivojlanishda yetakchi rol tizimli intellektual ta'limga tegishli. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual ta'limi - bu ongni rivojlantirish uchun o'sib borayotgan shaxsga tizimli va maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. U insoniyat tomonidan to'plangan bilim, ko'nikma va malakalarda, me'yorlar, qoidalar va baholashlarda aks ettirilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani yosh avlod tomonidan o'zlashtirishning tizimli jarayoni sifatida davom etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatdir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki yo'li mavjud: keng va intensiv. Ularning ikkalasi ham bitta yakuniy maqsadga ega: bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalash. Biroq, maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. Keng yo'l, birinchi navbatda, bolalarga yetkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv yo'l sub'ektiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga asoslanadi va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni va o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga kognitiv faoliyatni rivojlantirishning eng samarali tomonlari matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ladi va matematika o'qitish metodikasida asosiy o'rinni metodik usullar sifatida beriladigan savollar egallaydi. Ular reproduktiv-mnemik, reproduktiv-bilish, produktiv-bilish bo'lishi mumkin. Bunda savollar aniq va ixcham bo'lishi lozim. O'qitish jarayonida bolalar yoshi va o'rganiladigan materialga bog'liq holda



reproduktiv va produktiv savollar birligi bo'lishi kerak. Savollar bolalar fikrlashini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bolalarga beriladigan savollar ko'pincha guruhda nazoratni qo'lga olish maqsadida qo'llanadigan savollar bo'lishi mumkin. Ko'pincha qo'llanadigan savollar, bu yopiq deb ataluvchi savollardir. Ularga faqat bir to'g'ri javob bo'ladi va ular bilimni tekshirish uchun qo'llaniladi. Munozaralar vaqtida beriladigan ochiq savollar guruhning faolligini rag'batlantirish va ko'rib chiqilayotgan muammolarni tahlil qilishda muhimdir.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv faoliyat bolaning faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda "bilish faoliyati" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kognitivlik bolaning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bolaning kognitiv rivojlanishining kelib chiqishi dunyoni hissiy idrok etishda yotadi. Idrok asosida va harakatlar yordamida bolalar birinchi navbatda ob'ektlarning tashqi xususiyatlarini (ularning shakli, hajmi, rangi va boshqa tashqi xususiyatlarini aniqlash)ni o'rganadilar. Bu xususiyatlar bolalar xotirasida doimiy ravishda kengayib boruvchi, takomillashtiruvchi va farqlanadigan g'oyalar shaklida mustahkamlanadi. Kognitiv faoliyatda tajriba orttirish bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar ob'ektlar va hodisalarning muhim xususiyatlarini aniqlay boshlaydilar: ob'ektlarning maqsadi va funksiyasi (ular nima uchun kerak, ulardan qanday foydalanish kerak), ob'ekt va guruh o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar. Bunday muammolarni hal qilish uchun endi faqat hissiy bilish yetarli emas, shuning uchun bolalar mantiqiy bilish elementlarini o'zlashtira boshlaydilar: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va hokazo.

Tafakkurga asoslanib, maktabgacha yoshdagi bolalar allaqachon ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni tushunishga qodir bo'ladi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolaning bilish jarayoni sensordan mantiqiygacha rivojlanadi.

Atrofimizdagi dunyo haqidagi ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etiladi. Bu vizual ma'lumotlar (inson tomonidan yaratilgan ob'ektlar, jonli va jonsiz tabiat ob'ektlari), obrazli ma'lumotlar (rasm, musiqa, haykaltaroshlik), ilmiy ma'lumotlar (belgilar, ramzlar, maketlar, diagrammalar). Har bir shakl boladan aniq bilish harakatlarini o'zlashtirishni talab qiladi va maktabgacha yoshdagi davrida bola turli



xil bilish usullari va vositalarini o'zlashtiradi. Ular bolaga atrofidagi olamni o'rganishga, turli ma'lumotlarni olishda, kognitiv va shaxsiy muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Manbalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda kognitiv qobiliyat iborasi ham keng qo'llaniladi. Kognitiv qobiliyat bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u bolaning intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o'ziga xosligi bo'lib, ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo'lishini hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida kognitiv qobiliyatlar bolaning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Kognitiv qobiliyat har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ya'ni kognitiv (bilish) qobiliyatlari atrofidagi dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta'siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

Bolani maktabga tayyorlash muammosi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Maktabga tayyorgarlik turli tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Dastlab, asosiy e'tibor maktabgacha yoshdagi bolalarga qanday bilim va ko'nikmalarni berish kerakligiga, bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar yaratish kerakligiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim va maktab muhitining o'zaro samarali aloqasi, kombinatsiyasi bolaning maktabgacha yoshdan maktabga o'tishini yengillashtiradi. Bu borada bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, bilish faolligini rivojlantirish, boshlang'ich intellektual va amaliy faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 3032-son 03.07.2018
3. V.E.Viktorovna "Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish" bo'yicha qo'shimcha umumiy qo'llanma. T., 2016
4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Toshkent 2008
5. B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. Toshkent, 2018.
6. Tamberg Yu.G. Bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Sankt-Peterburg, Nutq. 2002 yil.

